



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-dekabr

758-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda 861-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 647-6-0-Q/24-son qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari o‘rinbosarlarining 2024-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) tasdiqlash to‘g‘risida”gi 861-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda 647-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga muvofiq,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-dekabrda 647-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrda 861-son qarori bilan:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari o‘rinbosarlari faoliyatining 2024-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) belgilanganligi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining o‘rinbosarlari faoliyatining 2024-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) 1-14 ilovalarga muvofiq tasdiqlanganligi;

“Samaradorlik.uz” platformasidagi va qog‘ozda tasdiqlangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) o‘rtasida tafovut mavjud bo‘lganda, platformadagi samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qo‘llanilishi;

eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga (KPI) erishilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar noto‘g‘ri to‘ldirilganda tegishli mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbar xodimlariga intizomiy jazo qo‘llanilgan holda tuzatish kiritilishi;

eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga (KPI) erishilishi monitoringini yuritish va ularga erishish natijalarini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasi tarkibiy bo‘linmalarining mas‘ul xodimlariga platformadan foydalanish huquqi berish tartibi belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosarlari A.Abdusalomov, J.Raximov:

belgilangan eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga (KPI) o‘z vaqtida, sifatli va natijador erishilishi ta‘minlash, bu borada mas‘ul tashkilot va muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

besh kun muddatda hokim o‘rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga (KPI) erishish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqib, tasdiqqa kiritish;

2025-yil 15-yanvarga qadar tuman hokimi o‘rinbosarlarining 2025-yil uchun eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) puxta ishlab chiqilishini ta‘minlash topshirilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Abdusalomov):

o‘n kun muddatda viloyat hokimi o‘rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida tuman hokimining o‘rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) tasdiqlasin;

tuman hokimi o‘rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha oylik ish rejalarini tasdiqlanishini ta‘minlasin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Abdusalomov) tumah hokimligi xodimlarining mehnat unumdorligini tahlil qilgan holda, har bir xodimning vaqtdan unumli foydalanish tizimini tashkil etish hamda xodimlarni kasbiy o‘stirish va malakasini oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni belgilasin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**